

ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERGNING “YOMG’IR VA SHAMOL” SHE’RI INSON RUHI TASVIRI

Nurmaxmatova Firuza Rasulovna

O‘zbekiston Davlat Jahon tillari

Universiteti Ingliz filologiyasi

Fakulteti 2-bosqich talabasi

feruzanurmaxmatova2005@gmail.com

Annotatsiya: Aleksandr Arkadevich Faynberg chuqur lirizm, falsafiy kayfiyat va inson ruhiy dunyosini teran anglashga qaratilgan asarlari bilan ajralib turadigan buyuk adabiyot arboblariidan biridir. U o‘z asarlarida insonning ichki kechinmalari, tabiat bilan uyg‘unlik masalalariga alohida e‘tibor qaratgan. Faynberg she‘riyatida tabiat elementlari - yomg‘ir, shamol, quyosh, yulduzlar va dengiz - shunchaki tashqi olamni tasvirlash vositasi emas, insonning ruhiy holatini, ichki dunyosidagi qayg‘u va orzularni ochib beruvchi timsollar tizimi hisoblanadi. Faynberg asarlarida tabiat tasviridan foydalanar ekan o‘quvchini nafaqat tashqarida sodir bo‘lib turgan voqealarni tasavvur qilishga, balki o‘z ichki dunyosini ham anglashga da‘vat etadi. Ushbu maqolada, Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Yomg‘ir va Shamol” she‘ridagi inson ruhi tasviri yoritiladi.

Kalit so‘zlar: she‘riyat, lirika, tabiat ramzlari, inson ruhiyati, ichki kechinmalar, falsafiy tafakkur, hayotiy haqiqat, emotsional tajriba, badiiy obrazlar, inson va tabiat uyg‘unligi.

Abstract: Alexander Arkadyevich Feinberg is one of the great literary figures, distinguished by his works of deep lyricism, philosophical mood and a deep understanding of the human spiritual world. In his works, he paid special attention to the issues of human inner experiences and harmony with nature. In Feinberg's poetry, the elements of nature - rain, wind, sun, stars and sea - are not just a means of describing the external world, but a system of symbols that reveal the mental state of a person, the sorrows and dreams in his

inner world. Using the image of nature in his works, Feinberg encourages the reader to imagine not only the events taking place outside, but also to understand his own inner world. This article will examine the image of the human soul in Alexander Arkadyevich Feinberg's poem "Rain and Wind".

Keywords: poetry, lyrics, symbols of nature, human psyche, inner experiences, philosophical thinking, life truth, emotional experience, artistic images, harmony between man and nature.

Аннотация: Александр Аркадьевич Файнберг — одна из великих литературных фигур, отличающаяся глубоким лиризмом, философским настроением и глубоким пониманием духовного мира человека. В своих произведениях он уделял особое внимание вопросам внутреннего переживания человека и гармонии с природой. В поэзии Файнберга элементы природы — дождь, ветер, солнце, звезды и море — являются не просто средством описания внешнего мира, а системой символов, раскрывающих душевное состояние человека, печали и мечты в его внутреннем мире. Используя образ природы в своих произведениях, Файнберг побуждает читателя представлять себе не только происходящие события, но и понимать собственный внутренний мир. В данной статье будет рассмотрен образ человеческой души в стихотворении Александра Аркадьевича Файнберга «Дождь и ветер».

Ключевые слова: поэзия, лирика, символы природы, человеческая психика, внутренние переживания, философское мышление, жизненная истина, эмоциональный опыт, художественные образы, гармония человека и природы.

Aleksandr Arkadevich Faynberg “Yomg’ir va Shamol” she’ri orqali insonning shaxsiy va umumiy ruhiy kechinmalari, hayotdagi murakkabliklari va umumiy insoniy tajribalarni badiiy va falsafiy ohangda bayon etadi. She’rda tabiat va inson ruhining uyg’unligi, inson hayot yo’li va uning tashqi olam bilan uzviy bog’liqligi mavzulari markaziy o’rinda turadi. Shu tarafdin Faynberg ijodi o’quvchiga insoniy kechinmalarni

keng falsafiy mazmunda anglash imkonini beradi va hayotda yuz berayotgan haqiqatlarni chuqur his qilishga undaydi.

YOMG'IR VA SHAMOL

Daraxtning panjasi biram ho'l, og'ir,

Yolg'iz uy eshigin qoqar, egib bosh.

Yig'layotgan yomg'ir, sel bo'lgan yomg'ir,

Kimning ruhi uchun to'kyapsan ko'z yosh?

Yomg'ir der: – Achinma dardimga manim,

Sog' bo'l, zor yig'lagan kishing bo'lmasin.

Kimning ruhi uchun yig'layotganim,

Sening g'aming emas, ishing bo'lmasin.

Dalalarda ingrab izg'igan shamol,

Aytgin, sen kim uchun tortmoqdasan oh?

Iching achigandir menga ehtimol?

Balki menga rahming kelgandir nogoh?

Shamol der: – O'zingni o'ylama faqat,

Axir, sendan boshqa odamlar ham bor.

Sensiz ham olamda ko'p g'am-u furqat,

Sensiz ham dunyoning tashvishi bisyor.

She'r ikki asosiy obraz bo'lmish yomg'ir va shamol atrofida rivojlanadi. Har bir personaj inson tuyg'ularini tasvirlaydi.

-Yomg'ir-qayg'u,achinish,ichki og'riq.

-Shamol-azob,iztirob,hayotdagi noaniqlik.

Bu tabiat obrazlari jonlantirish san'ati yordamida inson qalbi bilan bog'langan ikkinchi shaxs kabi tasvirlanadi.

“Yig'layotgan yomg'ir, sel bo'lgan yomg'ir,

Kimning ruhi uchun to'kyapsan ko'z yosh?”

Bu o'rinda yomg'ir qattiq achinish,dil iztiroblarini ifodalaydi.Faynbergning fikricha qayg'uni boshdan o'tkazish insonning ichki dunyosiga xos holat sanaladi,uni boshqalar bila bo'lishishning yoki miqdorini kamaytirishning imkoni yo'q.

Dalalarda esayotgan shamol asarda ichki iztirob,shovqin va tinchlik izlashga urinayotgan ruhni ifodalaydi:

“Dalalarda ingrab izg'igan shamol,

Aytgin, sen kim uchun tortmoqdasan oh?”

Shamolning darddan oh tortishi insonning yo'l topolmay qiynalishi ifodasidir.Ammo,u shu bilan bir qatorda yangilanish istagi,hayot faolligi belgisi hamdir.Chunki shamol har doim harakatda,to'xtov nima,yengilish nima bilmaydi.

She'rda shamol va yomg'ir o'zaro dialogga kirishadi.Asar avval boshidan yomg'ir insonning yolg'izlik sabab bo'lgan qayg'usini ochib beradi.Chunki aqalli biror kimsa uni hech qachon anglab yetmaydi. Shamolning harakati esa o'zgarish, bezovtalikni bildiradi.

Bundan kelib chiqib aytish mumkinki,tabiatdagi harakat inson ruhining doimiy o'zgarishini ramziy ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki,Aleksandr Arkadevich Faynbergning “Yomg'ir va Shamol'she'ri inson ruhiyatini va tabiat o'rtasidagi nozik bog'liqlikni yoritib beradi.She'rda yomg'ir va shamol obrazlari ichki kechinmalar,qayg'u,iztirob va hayotiy

haqiqatlarni ramziy tarzda ifodalaydi. Shu orqali muallif o'quvchini insoniy tuyg'ularni anglash va tabiat bilan uyg'unlikni his qilishga da'vat etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://arboblarni.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>
2. Aleksandr Faynberg. – T.: Ijod nashr, 2021
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
4. To'xtasinov A. Lirik qahramon psixologiyasi. — Samarqand: SamDU nashriyoti, 2018.
5. Ruzikulova M. She'riyatda ruhiy kechinma va badiiy ifoda uyg'unligi. — “Adabiyot nazariyasi jurnali”, №3, 2022.
6. www.ziyouz.com — “Aleksandr Faynberg she'riy merosi” rukni ostidagi maqolalar to'plami.